O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMI, RIVOJLANISHINING TARIXIY EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI HOLATI TAHLILI .....	962
<b>Raxmonov Azizjon Sadullayevich</b>	
SOLIQQA TORTILADIGAN KO'CHMAS MULKLARNI BAHOLASH TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....	970
<b>Musalimov Shuxrat Isamuxamedovich</b>	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASHNI TAKOMILLASHTIRISH BILAN BOG'LIQ BO'LGAN MUAMMOLAR.....	974
<b>Yuldashev Iskandar Abdurashidovich</b>	
BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASI VA UNING QURILISH SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK(DXSH)NI BOSHQARISHDAGI O'RNI .....	980
<b>Rasulov Shuxrat G'ayratovich</b>	
"YASHIL IQTISODIYOT", EKOLOGIK BARQARORLIK VA EKOLOGIK MADANIYAT .....	984
<b>Ibragimova Saodat Abdumo'minovna</b>	



EKOLOGIK TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASINING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI .....	990
<i>Mirzayeva Nilufar Sabirjanovna</i>	
IQTISODIY RIVOJLANISHDA INNOVATSIYALARNING NAZARIY ASOSLARI VA AHAMIYATI.....	995
<i>Davlatova Ozoda Olmos qizi</i>	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH: RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'YI INTELLEKTNI JORIY ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....	1001
<i>Suyunova Dilfuza Dilmurod qizi</i>	
BOZORNI SEGMENTATSİYALASHDA MARKETING TADQIQOTLARINING ROLI .....	1006
<i>Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilxomovna</i>	
O'ZBEKISTONNING "YASHIL IQTISODIYOT"GA O'TISH STRATEGIYASI .....	1010
<i>Sharifboyev Bunyod Azamat o'g'li, Abduraxmanova Gulnora Qalandarovna</i>	
TIJORAT BANKLARI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA KAPITALNING ROLI .....	1016
<i>Mirzaraximova Nurhayot Baxrom qizi</i>	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ВУЗОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ И РЫНОЧНОЙ КОНКУРЕНЦИИ .....	1020
<i>Ходжаева Наргизахон Анатолиевна</i>	
FUNDRAISING AS A STRATEGIC TOOL IN MUSEUM MANAGEMENT .....	1028
<i>Aziza Ibroximova</i>	
KORXONALARDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA SOLIQ IMTIYOZLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI .....	1035
<i>Boboraxmatova Shohsanam Ibodullo qizi</i>	
MAHALLIY JUN TOLALARINING GEOMETRIK VA FIZIK-MEXANIK XOSSALARINI NOTO'QIMA MATOLAR ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASI NUQTAI NAZARIDAN TADQIQ ETISH .....	1039
<i>Ermatov Shavkat Qulmatovich, Omonturdiyev Ortiq Eshboyevich</i>	
MOLIYAVIY HISOBOT TIZIMINI XALQARO STANDARTLARGA O'TKAZISHNING O'ZBEKISTONDAGI DINAMIKASI VA NATIJALARI (OLMALIQ KMK MISOLIDA) .....	1043
<i>A.J.Tuychiyev, M.V Abdunabiyeva</i>	
TARMOQLANGAN AVTOMOBIL YO'LLARI QURISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: FARG'ONA VODIYSI (FARG'ONA VILOYATI VA QO'QON HUDUDI) MISOLIDA RAQAMLI LOYIHALASH, OPTIMALLASHTIRISH VA INTELLEKTUAL BOSHQARUV .....	1051
<i>Yakubov Maqsadxon Sultaniyazovich, Norinov Muhammadyunus Usibjonovich, Zikrayev Akmaljon Alimovich</i>	
O'ZBEKISTONDA KORPORATIV INNOVATSIYA TIZIMINI ISH SAMARADORLIGINI BAHOLOVCHI (KPI) AXBOROT TIZIMINI ISHLAB CHIQRISH VA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....	1057
<i>Rafikova Kamila Baxtiyorovna</i>	
RAQAMLI BANK XIZMATLARINING MOLIYAVIY BOZOR RIVOJIGA TA'SIRI .....	1063
<i>Abdulazizov Javohir Abduvali o'g'li</i>	
OILAVIY TADBIRKORLIKNI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLIYALASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI .....	1070
<i>Davlyatov Qahramon Abdumavlyanovich</i>	



## OILAVIY TADBIRKORLIKNI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLIYALASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI

### Davlyatov Qahramon Abdumavlyanovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
mustaqil izlanuvchisi

E-mail: [qahramon260277@gmail.com](mailto:qahramon260277@gmail.com)

ORCID: 0009-0008-3783-4574

**Annotatsiya.** Maqolada oilaviy tadbirkorlikni tijorat banklari tomonidan moliyalashtirishning xorijiy tajribasi tahlil qilingan. Xitoy Xalq Respublikasi hamda Qozog'iston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishga qaratilgan davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlar va shart-sharoitlar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, oilaviy tadbirkorlikni tijorat banklari orqali moliyalashtirish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasini O'zbekiston Respublikasi amaliyotiga joriy etish imkoniyatlari yuzasidan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** oilaviy tadbirkorlik, kichik biznes, tijorat banki, kredit, iqtisodiyot, biznes, jamg'arma.

**Abstract.** The article analyzes foreign experience in financing family entrepreneurship by commercial banks. The opportunities and conditions created by the state to support entrepreneurial financing in the People's Republic of China and the Republic of Kazakhstan are examined. In addition, scientific and practical proposals are developed for adapting and implementing foreign practices of financing family entrepreneurship by commercial banks in the context of the Republic of Uzbekistan.

**Key words:** family entrepreneurship, small business, commercial bank, credit, economy, business, fund.

**Аннотация.** В статье проанализирован зарубежный опыт финансирования семейного предпринимательства коммерческими банками. Рассмотрены возможности и условия, созданные государством для поддержки финансирования предпринимательской деятельности в Китайской Народной Республике и Республике Казахстан. Также разработаны научно-практические предложения по адаптации и внедрению зарубежного опыта финансирования семейного предпринимательства коммерческими банками в практике Республики Узбекистан.

**Ключевые слова:** семейное предпринимательство, малый бизнес, коммерческий банк, кредит, экономика, бизнес, фонд.

### KIRISH

Oilaviy tadbirkorlik har bir mamlakat iqtisodiyotining asosiy ustunlaridan biri hisoblanadi. U ish o'rinlari yaratish, mahalliy bozorlarni resurslar bilan ta'minlash hamda investitsiyalarni jalb etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, aholining iqtisodiy faolligini oshirish va daromad manbalarini diversifikatsiya qilishda oilaviy tadbirkorlikning o'рни beqiyosdir.

Oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda tijorat banklari muhim moliyaviy vositachi sifatida ishtirok etadi. Bank kreditlari, imtiyozli moliyalashtirish dasturlari hamda davlat kafolatlari orqali oilaviy biznes subyektlarining moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini qondirish imkoniyati yaratiladi. Rivojlangan va rivojlanayotgan xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat va tijorat banklari o'rtasidagi samarali hamkorlik oilaviy tadbirkorlikni barqaror rivojlantirishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.



Shu nuqta nazardan, oilaviy tadbirkorlik subyektlarini bank kreditlari hisobidan moliyalashtirish mexanizmlarini doimiy ravishda takomillashtirib borish, shuningdek, ushbu yo'nalishda xorijiy davlatlar tajribasini tizimli ravishda o'rganish va ilmiy izlanishlar olib borish zarurati yuzaga keladi.

Shu munosabat bilan mazkur maqolada oilaviy tadbirkorlikni tijorat banklari tomonidan moliyalashtirishning xorijiy tajribasini o'rganish, uning asosiy yo'nalishlari va xususiyatlarini tahlil qilish hamda ushbu tajribani milliy amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini aniqlash maqsad qilib olingan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va uni moliyalashtirish masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlarida oilaviy biznesning iqtisodiy o'sish, aholi bandligini ta'minlash hamda daromadlar darajasini oshirishdagi o'rni alohida ta'kidlanadi. Ayniqsa, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik subyektlarini tijorat banklari tomonidan moliyalashtirish mexanizmlari ilmiy jihatdan atroflicha tahlil qilingan.

Kichik va oilaviy tadbirkorlikni moliyalashtirishda bank tizimining roli Germaniyalik iqtisodchi olim Torsten Bek hamda turkiyalik iqtisodchi olim Asli Demirgüç-Kunt tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda tijorat banklari orqali kreditlash imkoniyatlari, moliyaviy inklyuziya darajasi va davlat siyosatining tadbirkorlikni rivojlantirishga ta'siri chuqur tahlil qilingan. Mualliflar bank sektorining rivojlanganlik darajasi kichik va oilaviy biznes subyektlarining moliyaviy resurslarga bo'lgan imkoniyatlarini kengaytirishini ta'kidlaydilar.

Mazkur masalalar mamlakatimiz iqtisodchi olimlari Sh. Abdullayeva, O. Iminov, T. Malikov, S. Norqobilov, O. Olimjonov, Z. Xolmaxmadov hamda T. Tuxtaboyevlarning ilmiy ishlarida ham o'z aksini topgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada oilaviy tadbirkorlik subyektlarini bank kreditlari hisobidan moliyalashtirishning ahamiyati xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari, shuningdek, muallifning nazariy va amaliy kuzatuvlari asosida tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida analitik qiyoslash, mantiqiy yondashuv va guruhlash usullaridan foydalanildi.

Shuningdek, maqolada xorijiy davlatlarda, xususan Xitoy Xalq Respublikasi va Qozog'iston Respublikasida oilaviy tadbirkorlikni moliyalashtirish amaliyotini o'rganishda taqqoslama tahlil usuli qo'llanildi. Ushbu usul yordamida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, imtiyozlar hamda moliyaviy instrumentlar o'rtasidagi farqlar aniqlandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

1970-yillarda yuzaga kelgan inqiroz davrida ko'plab yirik kompaniyalar qimmatbaho strukturaviy qayta qurish jarayonlaridan o'tdi. Aynan shu davrda kichik firmalarning ahamiyati ortdi, chunki ular yangi mahsulotlarni tezkor ishlab chiqish hamda qo'shimcha ish o'rinlari yaratish imkoniyatiga ega ekanligini namoyon etdi.

Bank sohasi ham ertangi kunning eng istiqbolli mijozlari aynan dinamik va moslashuvchan kichik hamda o'rta korxonalar bo'lishi mumkinligini anglab yetdi. Shu bilan birga, investitsiyalarning yangi mexanizmlarining rivojlanishi yirik kompaniyalarga o'z moliyaviy ehtiyojlarini asosan qimmatli qog'ozlar bozori orqali qondirish imkonini berdi. Bu holat banklarni yirik mijozlardan ko'ra kichik biznes subyektlari bilan faolroq ishlashga undadi.

Jahon amaliyotida kichik korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning asosan uchta asosiy varianti mavjud:

1. to'g'ridan to'g'ri moliyalashtirish;
2. tijorat banklarini subsidiyalash;
3. kredit olish uchun kafolatlar bilan ta'minlash.

To'g'ridan to'g'ri moliyalashtirish

Kichik firmalarni to'g'ridan to'g'ri moliyalashtirish ko'pincha davlat tuzilmalari tomonidan tashkil etiladigan rivojlanish jamg'armalari orqali amalga oshiriladi. Ushbu jamg'armalarning asosiy vazifasi banklarni kichik biznesni kreditlashga rag'batlantirish maqsadida investitsiya resurslarini jamlashdan iborat.

Tijorat banklarini subsidiyalash. Tijorat banklarini subsidiyalash banklarga kichik biznesni kreditlashga yo'naltirilgan mablag'lari uchun soliq imtiyozlari berish orqali amalga oshiriladi. Bu esa banklarga kichik firmalarga nisbatan yanada qulay shartlarda kredit ajratish imkonini yaratadi.

Kafolatlar tizimi. Kichik korxonalar kreditlarni ishonchli kafolatlar bilan ta'minlashda qiyinchiliklarga duch keladilar, chunki ularda yetarli moddiy ta'minot mavjud emas. G'arbning ko'plab mamlakatlarida ushbu muammoni hal etish maqsadida kichik korxonalar guruhi uchun kollektiv jamoat kafolatlari tizimi joriy etilgan.

Kichik biznesni moliyalashtirishning muhim tashqi manbalari sifatida davlat dasturlari, turli jamg'armalar va tijorat banklaridan tashqari, xususiy yoki homiylik mablag'lari ham e'tirof etiladi. Bu borada venchur kompaniyalarining faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu kompaniyalar yangi texnologiyalarning





konstruktorlik, texnologik va loyihaviy ishlanmalarini amaliyotga joriy etish jarayonida yuzaga keladigan xavf-xatarlarni o'z zimmasiga oladi. Venchur investitsiyalarining asosiy rag'batini yangi mahsulotni ommaviy ishlab chiqarishga kirishgan kompaniya aksiyalari qiymatining oshishidan olinadigan foyda bilan belgilanadi.

Qo'llab-quvvatlashning yana bir shakli hamkorlikda moliyalashtirish hisoblanadi. Masalan, Germaniyada banklar va sug'urta tashkilotlari kichik va o'rta korxonalar kapitalida ishtirok etuvchi maxsus kompaniyalarni tashkil etgan.

Shuningdek, kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish bilan bog'liq muammolarni hal etishda savdo-sanoat palatalari ham muhim rol o'ynaydi. Ular tijorat banklari yoki maxsus jamg'armalarga alohida korxonalar moliyaviy holatini tekshirgandan so'ng tavsiyanomalar beradi. Ushbu tavsiyalar kredit olish uchun talab etiladigan garov talablarini sezilarli darajada kamaytiradi, ayrim holatlarda esa garovsiz kredit ajratish imkoniyatini ham yaratadi.

Shunga qaramay, so'nggi o'n yilliklarda kichik va o'rta biznesga xususiy investitsiya resurslarini jalb etishga imkon beruvchi yangi moliyaviy sxemalar paydo bo'lganiga qaramasdan, ushbu sohani moliyalashtirishda asosiy rol hanzugacha davlat zimmasida qolmoqda. Turli mamlakatlarda bu masalaga turlicha yondashuvlar mavjud bo'lsa-da, barcha holatlarda uni hal etishda davlatning o'rni muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilaviy tadbirkorlikni tahlil qilish jarayonida, avvalo, modernizatsiyaning murakkab yo'lini bosib o'tgan Xitoy Xalq Respublikasiga alohida e'tibor qaratish lozim, deb hisoblaymiz. Xitoyda oilaviy tadbirkorlikning rivojlanish tarixi boshqa mamlakatlar bilan solishtirganda nisbatan qisqaligi bilan ajralib turadi.

Xitoyda oilaviy tadbirkorlik 1978-yilda boshlangan "To'rt modernizatsiya" (sanoat, qishloq xo'jaligi, fan-texnika va mudofaa sohalaridagi islohotlar) dasturi bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu dastur doirasida amalga oshirilgan eng muhim islohotlardan biri qishloq xo'jaligida joriy etilgan "oilaviy mas'uliyat tizimi" (Household Responsibility System) hisoblanadi.

Mazkur islohot doirasida qishloq joylardagi kommunalar tugatilib, ekin yerlarini oilaviy dehqon xo'jaliklariga taqsimlash jarayoni boshlandi. Yer uchastkalaridan foydalanish huquqi alohida oilalarga berildi. Har bir xonadon yer maydonini ijara asosida olib, hosil yetishtirishda mustaqillikka ega bo'ldi. Davlat oldidagi majburiyat esa belgilangan kvotani topshirish bilan cheklab qo'yildi. Fermerlar davlatga belgilangan miqdorda mahsulot topshirgach, qolgan qismini erkin bozorda sotish huquqiga ega bo'ldilar. Natijada ularning daromadlari sezilarli darajada oshdi. Xonadonlar yer resurslaridan oqilona foydalanish, texnika, o'g'it va suv inshootlaridan samarali foydalanishga rag'batlantirildi.

Mazkur tizim natijasida:

- qishloq aholisi mehnat unumdorligi jadal sur'atlarda oshdi;
- 1980-yillarga kelib qishloq xo'jaligida hosildorlik keskin ko'tarildi;
- millionlab oilalarda oilaviy tadbirkorlik ruhi shakllandi va ular qishloq xo'jaligidan tashqari savdo, hunarmandchilik hamda xizmat ko'rsatish sohalariga ham kirib bordi;
- qishloq hududlarida xususiy biznes va kichik oilaviy korxonalar tez sur'atlarda rivojlana boshladi.

Mazkur tizim nafaqat qishloq xo'jaligini jonlantirdi, balki Xitoyda umumiy bozor iqtisodiyotining shakllanishiga ham mustahkam zamin yaratdi.

2004-yilda xususiy mulk Konstitutsiya darajasida huquqiy muhofazaga olindi. Oilaviy fermalar uchun alohida huquqiy maqom joriy etildi. Unga ko'ra, oilaviy fermalar yer maydonlarini ijara asosida uzoq muddatga, odatda 30-yilgacha bo'lgan davrda foydalanish huquqiga ega bo'ldi. Yer uchastkalari oilalar nomiga rasmiylashtirilib, undan foydalanish huquqini boshqa shaxslarga topshirish yoki meros qilib qoldirish imkoniyati yaratildi.

2015-yilda Xitoy Davlat Kengashi tomonidan "Inklyuziv moliyani rivojlantirish milliy strategiyasi" qabul qilindi. Mazkur strategiya doirasida ijtimoiy guruhlar, ayniqsa qishloq aholisi, kam daromadli oilalar hamda kichik tadbirkorlar uchun moliyaviy xizmatlardan teng foydalanish imkoniyatlari yaratildi. Ushbu tashabbusning asosiy maqsadi moliyaviy resurslarga kirishdagi to'siqlarni bartaraf etish hamda oilalarga o'z biznesini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash imkoniyatini berishdan iborat edi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mazkur dastur milliy darajada yagona bo'lsa-da, uni amalga oshirish jarayonida har bir hudud o'zining iqtisodiy, ijtimoiy va hududiy xususiyatlaridan kelib chiqib alohida dastur hamda chora-tadbirlarni ishlab chiqdi. Ya'ni milliy darajada umumiy mexanizmlar belgilab berilgan bo'lib, kredit foiz stavkalari va muddatlari bo'yicha subsidiyalar hududlarning joylashuvi, ixtisoslashuvi va mavjud imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilanadi. Xitoy modelida asosiy e'tibor "qat'iy foizlarni qoplash"ga emas, balki "xarajatlarni pasaytirish"ga qaratilgan.

Bu dastur orqali oilaviy tadbirkorlik subyektlariga quyidagi turdagi mikromoliya xizmatlari yo'lga qo'yildi:

- mikrokreditlar — kichik miqdorda, imtiyozli shartlarda beriladigan kreditlar;
- guruhiy kafolat — oilaviy tadbirkorlar kredit olish uchun shaxsiy garov qo'ya olmagan hollarda bir nechta qishloq oilalari birgalikda kafil (garant) sifatida chiqishi mumkin. Ushbu mexanizm guruhiy kafolat modeli deb yuritiladi;



• fermer plastik kartalari — qishloq banklari tomonidan oilalarga maxsus plastik kartalar orqali mikroaymlar ajratish amaliyoti joriy etilgan. Mazkur kartalardan to'g'ridan to'g'ri urug', o'g'it va texnika xarid qilishda foydalanish mumkin.

Shuningdek, Xitoy hukumati mikromoliya tizimini qo'llab-quvvatlash maqsadida subsidiyalash mexanizmlarini joriy etdi. Alohida yo'naltirilgan imtiyozlar (targetlangan subsidiyalar) oilaviy tadbirkorlik va kichik biznes subyektlari uchun, asosan, imtiyozli kreditlar va subsidiyalar shaklida amalga oshiriladi. Ushbu imtiyozlar yo'nalish, hudud va tadbirkorlik faoliyati turiga qarab farqlanadi<sup>1</sup>:

#### 1. Foiz stavkalari bo'yicha imtiyozlar

• Qishloq va oilaviy biznes subyektlari uchun banklar tomonidan bozor stavkalarida ajratilgan kreditlar davlat tomonidan qisman subsidiyalanadi.

• Ayrim hududlarda (masalan, Henan va Sichuan provinsiyalarida) 1–3-yillik "0 % stavka" asosidagi kreditlar amaliyotda qo'llaniladi.

#### 2. Kredit muddati bo'yicha

• Qisqa muddatli kreditlar — asosan 1–3-yil (aylanma mablag', kichik hunarmandchilik va xizmat ko'rsatish sohasi uchun);

• o'rta va uzoq muddatli kreditlar — 5-yilgacha (qishloq xo'jaligi, issiqxona, chorvachilik, asalarichilik va baliqchilik bilan shug'ullanuvchi oilaviy fermalar uchun);

• alohida investitsion loyihalar — 7–10-yilgacha (masalan, issiqxona qurish, qishloq turizmini rivojlantirish, kichik fabrikalar tashkil etish uchun).

#### 3. Kredit summasi bo'yicha

• mikrokreditlar;

• maqsadli kreditlar — qishloq xo'jaligi va qayta ishlash tarmoqlari uchun;

• yirik oilaviy klaster loyihalari uchun imtiyozli kreditlar.

#### 4. Aniq tarmoqlar bo'yicha maxsus imtiyozlar

• chorvachilik kreditlari — mol, qo'y va echki xarid qilish uchun;

• asalarichilik va parrandachilik — odatda 2–3-yil muddatga, ayrim hududlarda 0–3 % stavkada;

• issiqxona qurish — 5–7-yil;

• qishloq turizmi (uy-mehmonxona, qishloq mehmonxonasi) — 5–10-yil;

• dehqonchilik (paxta, don, sabzavot yetishtirish), shuningdek, xotin-qizlar va yoshlar tadbirkorligi uchun ham alohida imtiyozlar mavjud.

#### 5. Ta'minot masalasi

Kreditlar ko'p hollarda garovsiz beriladi. Davlat homiyligida faoliyat yurituvchi kafolat jamg'armalari ham mavjud bo'lib, ular kredit risklarini qisman o'z zimmasiga oladi.

#### 6. Qaytarish tartibi

Kreditlar, asosan, yil oxirida bir yo'la qaytarish (masalan, hosildan keyin) yoki annuitet to'lovlar shaklida — oyma-oy yoki chorakma-chorak undiriladi. Ayrim hollarda imtiyozli davr qo'llanilib, 6–12-oy davomida faqat foiz to'lanib, keyinchalik asosiy qarzni qaytarish imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, Xitoyda raqamlashtirilgan inklyuziv moliya dasturi joriy etilgan bo'lib, unda Alipay, WeChat Pay va JD Finance kabi raqamli platformalar orqali oilaviy tadbirkorlar:

• onlayn mikrokreditlarni bir necha daqiqada rasmiylashtirish,

• kredit tarixini mobil telefon orqali shakllantirish,

• davlat subsidiyalarini elektron hisob raqamlariga olish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Natijada raqamlashtirilgan inklyuziv moliya dasturi orqali oilaviy tadbirkorlik subyektlari an'anaviy moliyalashtirish usullariga nisbatan arzon, tez va qulay moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi.

2015–2020-yillarda Xitoyda 300 milliondan ortiq qishloq oilalari inklyuziv moliya xizmatlaridan foydalandi<sup>2</sup>. Mikromoliya va subsidiyalangan kreditlar orqali oilaviy tadbirkorlik qishloq hududlarida millionlab yangi ish o'rinlarini yaratdi. Kam ta'minlangan oilalar uchun tadbirkorlikka kirishning eng qulay yo'li aynan ushbu dasturlar orqali ta'minlandi.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv moliya dasturlari oilaviy tadbirkorlik subyektlariga garovsiz kredit olish, foiz stavkalarining davlat tomonidan subsidiyalanishi hamda raqamli moliya vositalari orqali tezkor va shaffof xizmatlardan foydalanish imkonini berdi. Ushbu siyosat oilaviy tadbirkorlikni qishloq hududlaridan tortib shaharlargacha barqaror rivojlantirishga xizmat qildi.

2021-yildan boshlab yangi bosqich — 2021–2025-yillarga mo'ljallangan inklyuziv moliyani chuqurlashtirish dasturi amalga oshirila boshlandi. Xitoy Moliya vazirligi tomonidan inklyuziv moliyani rivojlantirish uchun 9,22 milliard yuan (1,43 milliard AQSh dollari) miqdorida maxsus mablag' ajratildi<sup>3</sup>.

1 Интернет маълумотлари асосида муъалиф томонидан жамланди.

2 Интернет маълумотлари.

3 English.gov.cn "China allocates more funds to boost inclusive finance in 2021", June 19, 2021.



Umuman olganda, 2021–2025-yillar Xitoy uchun inklyuziv moliya siyosatidagi asosiy “renessans davri” bo‘lib, ushbu davrda davlat raqamli texnologiyalar, malakali investitsiyalar va institutsional islohotlar orqali barcha fuqarolar, ayniqsa oilaviy tadbirkorlik subyektlari uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Endi Qozog‘iston misolida oilaviy tadbirkorlikni tijorat banklari tomonidan moliyalashtirish tajribasini ko‘rib chiqamiz.

Qozog‘istonda oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashda tijorat banklarining o‘rni muhim hisoblanadi. Mamlakat moliya tizimida kichik biznes, jumladan oilaviy tadbirkorlikni rag‘batlantirishga qaratilgan bir qator samarali mexanizmlar ishlab chiqilgan. Ushbu mexanizmlarning asosiy maqsadi yangi biznes subyektlarining rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratish, kredit resurslariga yetarli darajada kirish imkoniyatini ta‘minlash hamda oilalar daromadlarini oshirishdan iborat.

Qozog‘istonda ham rivojlangan davlatlarda bo‘lgani kabi oilaviy tadbirkorlikni kreditlashda davlat tashabbusi yetakchi o‘rinni egallaydi.

Mazkur mamlakatda tijorat banklarining oilaviy tadbirkorlikni moliyalashtirish tajribasi davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi samarali hamkorlikka asoslangan mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Banklar arzon kreditlar, subsidiyalar va kafolatlar, shuningdek, raqamli xizmatlar hamda o‘quv dasturlari orqali oilalarning o‘z biznesini boshlashi va rivojlantirishi uchun davlat ko‘magida qulay sharoit yaratadi.

Qozog‘istonda Damu tadbirkorlikni rivojlantirish jamg‘armasi 1997-yilda respublika hukumatining maxsus qarori asosida tashkil etilgan<sup>4</sup>. “Damu” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi qozoq tilida dam olish, tiklanish, o‘sish, rivojlanish va taraqqiy etish tushunchalarini anglatadi.

2001-yilgacha jamg‘arma ichki ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari dasturi doirasida davlat byudjeti mablag‘laridan foydalanishni hisobga olish va nazorat qilish bo‘yicha agentlik vazifalarini bajargan. Shuningdek, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda Osiyo taraqqiyot banking kredit liniyalari bo‘yicha ham mazkur vazifalarni amalga oshirgan.

2010-yildan boshlab jamg‘arma o‘z faoliyatini yanada kengaytirib, institutsional mavqeini mustahkamladi va to‘liq milliy darajadagi biznesni qo‘llab-quvvatlovchi institutga aylandi.

Jamg‘armaning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash;
- tadbirkorlar uchun moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;
- tijorat banklari bilan hamkorlikda imtiyozli moliyalashtirishni amalga oshirish;
- biznes muhitini yaxshilash va tadbirkorlik faoliyatiga yuklatilgan to‘siqlarni kamaytirish.

Damu jamg‘armasining moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari quyidagi asosiy yo‘nalishlarga tayanadi.

A) Foiz stavkalarini subsidiyalash. Subsidiyalar, asosan, sanoat, servis va xizmat ko‘rsatish, qishloq xo‘jaligi, transport va logistika hamda oilaviy tadbirkorlik sohaslariga yo‘naltiriladi. Tadbirkor tijorat bankidan kredit oladi va foiz to‘lovining bir qismi davlat, ya‘ni Damu jamg‘armasi tomonidan qoplab beriladi.

B) Kreditlarni kafolatlash. Damu jamg‘armasi kredit summasining 50–85 % qismini kafolatlaydi. Kafolatlangan kreditlar, odatda, 20 million tenggacha bo‘lgan miqdorda garovsiz yoki minimal garov talabi bilan ajratiladi.

C) Nomoliyaviy qo‘llab-quvvatlash. Damu jamg‘armasi nafaqat moliyaviy resurslar bilan ta‘minlaydi, balki tadbirkorlar uchun nomoliyaviy qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini ham ko‘rsatadi. Jumladan, boshlang‘ich tadbirkorlar uchun 1–2-kunlik o‘quv kurslari, biznes-reja tuzish, buxgalteriya hisobi, soliqlar va marketing asoslari bo‘yicha treninglar tashkil etiladi.

D) Konsultatsiya va maslahat markazlari. Qozog‘istonning barcha hududlarida tadbirkorlar uchun konsultatsiya va maslahat markazlari faoliyat yuritadi. Ushbu markazlar amaliy biznes maslahatlari, trener va mutaxassislar xizmatlari, shuningdek, yuridik, moliyaviy va buxgalteriya maslahati bilan ta‘minlaydi.

Mazkur xizmatlar oilaviy tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan xatolarni kamaytirishga sezilarli darajada ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi(1-jadval).

### 1-jadval. “Damu” jamg‘armasining subsidiyalash yo‘nalishlari


Ishtirokchilar	Mikro va kichik tadbirkorlik subyektlari, ijtimoiy tadbirkorlik subyektlari
Kreditning maksimal summasi	200 mln tenggacha (380 ming AQSh dollari)
Kredit maqsadi	Investitsiyalar, aylanma mablag‘larni to‘ldirish
Foiz stavkasi (stavka voznavrjdeniya)	Milliy bank (Markaziy bank) bazaviy stavkasi + 4 %
Subsidiyaning miqdori	Foiz stavkasining 40 %

4 Damu.kz sayti asosida tayёрланди.



Qarz oluvchi to'laydigan yakuniy foiz stavkasi	12,3 % dan past bo'lmashligi lozim
Ijtimoiy qarz oluvchi to'laydigan yakuniy foiz stavkasi	11,3 % dan past bo'lmashligi lozim
Subsidiyalash muddati	3-yilgacha
Qarz oluvchining majburiyatlari	Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralarini taqdim etilgan paytdan boshlab ikki moliyaviy yil davomida soliqlar va ish o'rinlari sonini 10 % ga oshirish.

1-jadvalda jamg'armaning subsidiyalash yo'nalishlari, ishtirokchilari, kreditning maqsadi, summasi va foiz stavkalari, shuningdek, subsidiyaning miqdori hamda amal qilish muddatlari keltirilgan(1-rasm).



1-rasm. "Damu" jamg'armasining tijorat banklari bilan hamkorlik qilish sxemasi.

Nega "Damu" jamg'armasi samarali hisoblanadi?

- kredit resurslari nisbatan arzon bo'ladi;
- garov ta'minoti yetarli bo'lmagan tadbirkorlar ham kredit olish imkoniyatiga ega bo'ladi;
- qishloq va oilaviy biznes subyektlari uchun imkoniyatlar kengayadi;
- tijorat banklari uchun kredit risklari kamayadi;
- biznes faoliyatining barqarorligi oshadi;
- davlat resurslari tijorat banklari bilan hamkorlikda maqsadli va samarali yo'naltiriladi.

Qozog'iston tijorat banklari so'nggi yillarda raqamli kreditlash tizimini jadal rivojlantirmoqda. Mazkur jarayon oilaviy tadbirkorlar uchun bir qator qulayliklar yaratmoqda. Ushbu amaliyot, ayniqsa, qishloq hududlarida yashovchi oilalar uchun yuqori darajada foydali bo'ldi.

Shuningdek, Qozog'iston banklari ayollar va yosh tadbirkorlar uchun alohida imtiyozli kredit mahsulotlarini joriy etgan. Bu oilaviy tadbirkorlik faoliyatini boshlashni rejalashtirayotgan ayollar uchun muhim moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmi hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

• Oilaviy tadbirkorlik ish o'rinlari yaratish, mahalliy bozorlarni resurslar bilan ta'minlash hamda investitsiyalarni jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

• Oilaviy tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishda deyarli barcha mamlakatlarda asosiy rol hanuzgacha davlat zimmasida qolmoqda.

• Jahon amaliyotida kichik korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, asosan, to'g'ridan to'g'ri moliyalashtirish, tijorat banklarini subsidiyalash hamda kafolatlar tizimi orqali amalga oshiriladi.

Fikrimicha, respublikamizda oilaviy tadbirkorlikni tijorat banklari tomonidan moliyalashtirishda xorijiy davlatlarning quyidagi tajribalarini tatbiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi:



1. Mikrobiznes va oilaviy tadbirkorlik segmentida kredit xavfini baholashda skoring modellari faqat an'anaviy bank ma'lumotlariga (rasmiy daromadlar, kredit tarixi) tayanib qolmasdan, mazkur ma'lumotlar yetarli bo'lmagan holatlarda alternativ ma'lumotlardan foydalanish tizimini joriy etish.
2. Kafolat jamg'armalari va "zontikli kafillik" tizimini amaliyotga tatbiq etish.
3. Tezkor ajratiladigan kreditlar uchun maxsus moliyaviy marketpleys tashkil etish.
4. Oilaviy va innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan venchur kompaniyalarini tashkil etish.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alimardonov I.M. Kichik biznes subyektlarini kreditlashning uslubiy va amaliy asoslarini takomillashtirish. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2018.
2. Ibragimov N.M. Oilaviy tadbirkorlikni moliyalashtirishning iqtisodiy mexanizmlari. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2020.
3. Abdullayev A.A. Kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni bank kreditlari orqali qo'llab-quvvatlash. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" jurnali, 2021, № 4.
4. Календжян С.О., Волков Д.А. Семейное предпринимательство: анализ российской практики. Российский внешнеэкономический вестник, № 9, 2011.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 1

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---